

ZULFIYA HAYOT YO'LI -BIZ QIZLARGA O'RNAK

Shohista Turobova Shavkat qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada otashnafas shoira Zulfiyaxonim hayot yo'li, qizlarimizga o'rnak bo'ladigan xislatlari hamda mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratilayotgan inkoniyatlar haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: shoira, she'r, vafo, sadoqat, ibrat, xayo, gender.

O'zbek she'riyatining otashnafas shoiralaridan biri, inson ruhiyati dunyosining betakror kuychisi Zulfiyani bilmaydigan, uning biror she'rini yod olmagan zamonamiz yoshlari bo'lmasa kerak. Sevimli shoiramiz o'z she'rlari bilan bizlarni nafosatga, ezgulikka oshno etib, oppoq tong sari yetaklab, qalb harorati bilan isitib kelmoqda. Zulfiyaxonim Isroilova xushxulqli, olijanob, zukko inson, iste'dod sohibasi, shuningdek, sadoqat timsoli hamdir. Zulfiyaxonimni juda ko'p davlatlarda yaxshi bilishadi. O'zbek qizi, shoirasi sifatida bir qancha mukofotlarga sazovor bo'lgan. Uni xalq baxtli ayol degan bo'lsa-da, lekin yoshligida yaqinlaridan ayrilgan, 29 yoshida turmush o'rtog'idan judo bo'lgan. "Umridan yarim, sevgidan yetim bo'lib qolgan" shoira kuchli iroda va bardoshi bilan yo'qotishlarni mardonavor yengib, 2 nafar farzandini voyaga yetkazgan. Butun hayotini so'z sehriga bag'ishlagan. Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan o'zining vafo va sadoqati, onalik mehri va ayollik jasorati bilan barcha o'zbek ayollari uchun ibrat namunasi hisoblangan shoira sharafiga Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan. Bugungi kunda yuzlab o'zbek qizlari ushbu yuksak mukofotga sazovor bo'lishmoqda. Zulfiyaxonim hayot yo'li esa haqiqiy ma'noda o'zbek qizlariga o'rnakdir.

Jamiyatni xotin-qizlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi jamiyatimizda ayol – mehribon ona, opa yo singil, sevimli umr yo'ldosh, oila bekasi, nevaralarning duogo'y buvijonisi bo'libgina qolmay, jonkuyar muallim, ishchan rahbar, olim, ijodkor, tadbirkor hamdir.

Bu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Hozirda Yer yuzi aholisining 49,6 foizi xotin-qizlardan iboratligini inobatga olsak, jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollar nechog'lik muhim o'ringa ega ekanini yanada teranroq anglaymiz.

Gender tengligi ustuvor ahamiyat kasb etayotgan XXI asrda - xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularga o'z iste'dodlarini namoyon etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratish har qachongidan ham dolzarbdir. Shu ma'noda, O'zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida ayollar huquqlari kafolatlari borasida qator xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgani diqqatga loyiqdir.

Bu borada yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlarga to'xtaladigan bo'lsak, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, san'at, madaniyat va tadbirkorlik kabi bir qator sohalarida qizlarga alohida e'tibor qaratilayotganini qayd etish joiz. Qizlarning ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida faol mehnat olib borishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qizlarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash orqali ularning o'zi qiziqqan sohaning yetuk mutaxassisi bo'lishiga, shu yo'l bilan jamiyat farovonligini, davlat rivojini yanada yuksaltirishga erishilmoqda. Natijada xalqaro fan olimpiadalari va tanlovlarda O'zbekiston qizlari faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib, yurtimiz dovrig'ini dunyoga taratmoqda.

Sportga jalb qilish orqali sog'lom turmush tarzini hayotga tatbiq etish, maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlab qizlarning sportga qiziqishini oshirish va sport bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyatlar yaratish kabi muhim vazifalar bo'yicha izchil amaliy ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, qizlarni onalikka tayyorlash, yoshligidanoq sog'lom ona va sog'lom bola tamoyili asosida tarbiyalash orqali ularni erta turmush qurishining oldini olish, turli xil nojo'ya va sog'liqqa zarar keltiruvchi illatlardan himoya qilish kabi masalalar doimiy diqqat markazida turibdi.

Turli soha va tarmoqlarda iqtidorini, faolligini va tashabbuskorligini ko'rsatayotgan qizlarning har yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan rag'batlantirilishi esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini yanada oshiradi. O'sib kelayotgan yosh avlodni yurt ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shadigan faol va izlanuvchan inson qilib tarbiyalashda mukofot sohibalarini o'rnak sifatida ko'rsatish ham nihoyatda samarali.

Tadbirkorlik faoliyatida qizlarimizga biznes loyihalarini amalga oshirishlari, minglab yoshlarni ish bilan ta'minlashlari, bo'sh ish o'rinlari yaratishlari, banklar tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozli kreditlardan samarali foydalanishlari, bir so'z bilan aytganda, davlatimizga munosib tadbirkor ayol bo'lib yetishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, millatning ertasi, davlat ravnaqi va yurt kelajagi o'sib kelayotgan qizlarimizning jisman sog'lom, ma'nan yetuk, aqlan komil inson bo'lib ulg'ayishiga bog'liq. Buning uchun ularni yoshligidan sog'lom fikr asosida tarbiyalash hamda sog'lom muhitda voyaga yetishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish kerak. Bu borada mamlakatimiz jahonning ko'plab davlatlariga o'rnak bo'la oladi. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg'a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchiliklarida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o'zini yo'qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg'otadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Sulstonova M., Ijod sahifalari, Toshkent, 1975; Zulfiya [bibliografiya], Toshkent, 1977; Sulstonova M., Zulfiya, Toshkent, 1985; Ibrohimov M., Quyoshli she'riyat ijodkori, Toshkent, 1986; Ehtirom [nashrga tayyorlovchilar: Rahima Shomansurova, Ra'no Rahmonova], Toshkent, 1995.
2. Naim Karimov. m. G. Gulyama, 1983.
3. Qayumov L. Shoiri Zulfiya. Toshkent, O'zadabiynashr, 1965.
4. S. O'zbek adiblari. Toshkent: „Yozuvchi“, 2000.
5. Tanlangan asarlar (3 jildli), Toshkent, 1985.